

O'zbekiston Prezidenti Osiyo taraqqiyot banki prezidentini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-mart kuni Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Takexiko Nakaoni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor dastur va loyihalarni amalga oshirish borasida O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklik izchil rivojlanib borayotganini

mamnuniyat bilan ta'kidladi.

Bugungi kunda hamkorlik portfeli umumiy qiymati 14 milliard dollardan ziyodni tashkil etuvchi 59 loyihani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni moliyalashtirish uchun bankning 6 milliard dollardan ko'proq mablag'i jalb qilingan.

Tollimarjon va Taxiotosh issiqlik elektr stansiyalarida zamonaviy bug'-gaz qurilmalarini barpo etish, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini modernizatsiya qilish, qishloq joylarda namunaviy uy-joy qurish, mamlakatimizning turli hududlarida suv ta'minoti tizimi va sanitariya obyektlarini rekonstruksiya qilish, Amu-Buxoro mashina kanali tizimini qayta tiklash, Maroqand-Qarshi temir yo'lini elektrlashtirish, kichik biznesni, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va boshqa loyihalar Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan yirik loyihalar sirasiga kiradi.

Uchrashuvda 2017-2019-yillarga mo'ljallangan qo'shma dastur doirasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi.



Aholi, ayniqsa, qishloq aholisi turmush darajasini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, yo'l-transport infratuzilmasi, muqobil energetikani rivojlantirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va boshqa yo'nalishlarga qaratilgan ustuvor loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

OTB prezidenti samimiy qabul va o'zaro sheriklik munosabatlarini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlayotgani uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildirib, Osiyo taraqqiyot banki O'zbekiston bilan keng ko'lamlı hamkorlikni rivojlantirishga tayyorligini ta'kidladi.

OTB delegatsiyasining mamlakatimiz vazirliklari va idoralarda o'tkazgan uchrashuvlari yakuni bo'yicha bankning 573 million dollarlik mablag'ini jalb qilgan holda kichik biznes, meva-sabzavotchilik sohalari, suv ta'minoti tizimi va avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirishga doir 4 loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

O'zbekistonga tashrifi davomida Takexiko Nakao Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlarida bo'lib, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining natijalari bilan tanishdi.